

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA METAFORIK IFODALAR VA ULARNING MADANIY ASOSLARI

Qobuljonova Robiya

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi

1- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan metaforik ifodalar hamda ularning madaniy asoslari tahlil qilinadi. Metaforalar har bir xalqning nafaqat badiiy boyligini, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari va tafakkur tarzini ham aks ettirishi o'rganildi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi metaforik ifodalarga misollar keltirilib, taqqoslandi, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: metafora, metaforik obrazlar, mentalitet, globallashuv, tarjima, milliy tafakkur.

Dunyoda necha til borki, har birida xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari tizimini o'zida jamlagan o'ziga xos ifoda vositalari mavjud. Bu kabi vositalar orqali insonlar boshqa millat vakillariga o'z xalqi, hayot tarzi haqida ma'umot beradi. Bular "metaforalar" deb ataladi. Fikrimning isboti sifatida mashhur tilshunos olimning metaforalar haqidagi ta'rifini keltirsam: "Languages encode cultural values through metaphorical expressions that are unique to the speakers of each language"[1], ya'ni "Tillarda madaniy qadriyatlar har bir til egasiga xos metaforik ifodalar orqali aks ettiriladi".

Darhaqiqat, o'zbek tilidagi metaforalarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning birida ko'ngil daryoga qiyoslangan: "Menga o'rorish ko'nglingizni qoplasa g'am, Izlasangiz, ko'ngli daryo, dilkash hamdam". O'zbeklarda ko'ngil muqaddas tushuncha, daryo esa suv o'roris-chuqur va keng. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu ifoda bag'rikeng, kechirimli kabi ma'nolarni bildiradi, o'rori'lsa faqat o'zbek tiliga xosdir. Ingliz tiliga mansub metaforalar haqida o'rganadigan





bo'lsak, ular o'zbek tilidan farq qilishini sezishimiz mumkin, chunki bu ikki xalqning alohida o'ziga xos qadriyat yoki tafakkuri mavjud. Masalan, ingliz tiliga oid: Butun dunyo- bu sahna, erkaklar va ayollar esa undagi aktyorlar, xolos" [2] kabi metaforik gap mavjud. Bunda dunyo sahnaga qiyoslangan, ya'ni hayot- bir spektakl. Insonlar esa aktyorlar sifatida turli ijtimoiy rollarni ijro etishadi. Ushbu metafora G'arb xalqlari tafakkuri qanday ekanini ko'rsatadi.

Adabiyotlarda bu ikki tilda: o'zbek va ingliz tillarida ma'nolari deyarli bir xil bo'lgan metaforik birliklarni ham uchratamiz. O'zbek tilidagi "Ko'ngli nozik" ifodasining ma'nosi bevosita ingliz tilidagi

"He was a sensitive soul, easily wounded"[3] gapida ishlatilgan "**sensitive soul**" ifodasi ma'nosiga teng kelar ekan. Demak, har ikki tilda nozik ko'ngil- mehrga tashna, ta'sirchan odamga nisbatan qo'llaniladi va ikki xalqlarda insoniy his-tuygularga bir xil hurmat borligini ko'rsatadi.

Metaforalar orqali biz uchun mavhum yoki tajribamizda ajralib turmaydigan tushunchalarni ham osonroq va aniqroq tushunishimiz mumkin[4]. Misol uchun, "**vaqt uchib ketadi**" iborasida garchi vaqt qush kabi ucha olmasada, uning tez o'tib ketishi qushning parvozigacha o'xshatiladi. Yoki "Sevgi -bu kurash, sevgi-bu yo'l"[5] ifodalarida biz sevgi haqida qanday fikrlashimiz aks ettirilmoqda. Lug'atlarda "sevgi" so'zi qidirilsa, uning his-tuyg'u ekanligini o'qish mumkin, xolos. Bir so'z bilan aytganda, metaforalar fikrlash tarzimizning asosi hisoblanadi.

Metaforik ifodalarni o'rganish nima uchun muhim? Metaforalar to'g'risida izlanish olib o'qish tilshunos olimlar bilan birgalikda har bir yangi til o'rganayotgan inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida ingliz tili va o'zbek tili vakillari o'rtasidagi aloqa tobora ortib bormoqda. Metaforalarni o'rganish yangi tilning so'z boyligini bilibgina qolmay, o'sha xalqning mentalitetini ham o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, tarjima sohasida ham metaforalarning ma'nolarini bilish muhimdir. Misol uchun, ingliz tilidagi "break the ice" iborasi o'zbek tilida "suhbat boshlash" deb emas, "muzni sindirish" deya tarjima qilinsa, asl ma'no yo'qoladi. Shu kabi



muammolarning oldini olish uchun ushbu ifodalarning ma'nolari to'g'ri o'rganilishi zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ma'lum tildagi metaforik ifodalarni o'rganish o'sha tilga mansub xalqning milliy tafakkuri haqida ma'lumotga ega bo'lish demakdir. Aynan Ingliz va o'zbek tiliga oid bo'lgan metaforalar ma'nosini bilish esa o'rganuvchining bu ikki xalqning o'xshash va farqli bo'lgan an'analari-yu, qadriyatlaridan xabardor bo'lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language usage. Cambridge University Press, 1987.
2. Shekspir U. As You Like It , II bob, VII sahna. First Folio, 1623.
3. Virginal Woolf, "To the light house". The Hogarth Press, 1927.
4. Lakoff J., Johnson M., " Metaphors we live by". University of Chicago Press, 1980.
5. Lakoff J., Johnson M. "Metaphors we live by". University of Chicago Press, 1980.

